

Kulgi - xursandchilikdan belgi

Kuling, umringiz uzun bo'ladi. Dono xalqimizning bu hikmatida hayotni xushchaqchaq o'tkazish bilan bog'liq da'vati bor. Xushchaqchaq inson boshqalarga ham xursandchilik ulashishni xush ko'radi. Dunyoda hazil-mutoyiba, kulgi kuni, aldoqchilar kuni kabi nomlar bilan ataluvchi 1 - aprel barchaning tabiatida quvnoqlikni hukmron bo'lishini ta'minlashi bilan xarakterlanadi. Shunday ekan, bu kunga o'z munosabatimizni bildirishimiz ham maqsadga muvofiq ekanligini anglaganlar ham yo'q emas.

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining 3- sonli talabalar turar joyida 2018 - yil 3 -aprel kuni ana shu sanaga bag'ishlanib tadbir o'tkazildi. Tadbir davomida institutimizning "Shunchaki" jamoasi o'zlarining qiziqarli chiqishlarini havola etishdi.

Bu chiqishlari bilan ular talabalarni yuzlariga kulgi, tabassum ulashishdi. Ushbu tadbir davomida talabalar ham qiziqarli chiqishlarda va o'yinlarda ishtirok etishdi.

Tadbirni tashkillashtirishdagi faolligi uchun "Yerdan foydalanish va yer kadastri" fakulteti Yoshlar Ittifoqi yetakchisi Abduqodirov Shaxrom va boshqa faol talabalarga o'z minnatdorchligimizni bildiramiz.



3-TTJ pedagog-tarbiyachisi Aziza Xaitova axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov